



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2026-yil 4-mart, № 43 (9214)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



MAMLAKATIMIZ MUDOFAA QOBILIYATINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev huzurida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, harbiy xavfsizligini ta'minlash masalalari, shuningdek, joriy yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosining borishi ko'rib chiqildi.

Dunyoda keskinlik va mojaroalar o'choqlari saqlanib qolayotgani, geosiyosiy raqobat kuchayib, yangi xatar va tahdidlar xavfi ortib

borayotgani ta'kidlandi. Ayrim mintaqalardagi harbiy harakatlar jiddiy gumanitar va iqtisodiy oqibatlariga olib kelayotgan notinch xalqaro vaziyat sharoitida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mudofaa vaziri qo'shinlarning jangovar shayligini oshirish, qism va bo'linmalarni tezkor tayyorlash, ularni

zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash, harbiy-ma'muriy sektorlar infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida axborot berdi.

Rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasi va jangovar harakatlar tajribasini o'rganish, harbiy boshqaruv va tayyorgarlik tizimiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, qo'shinlar samaradorligini

oshirish uchun yangi texnologiyalar, jumladan, uchuvchisiz tizimlar va raqamli boshqaruv yechimlarini keng qo'llash zarurligi qayd etildi.

Shuningdek, harbiy-ma'muriy sektorlar, poligonlar, ta'lim muassasalari va moddiy-texnik ta'minot obyektlari infratuzilmasini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish hamda rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Harbiy kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni izchil davom ettirish, ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, zamonaviy qurol-yarog' va texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilish yakunida davlatimiz rahbari Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish va mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash bo'yicha tegishli vazifalarni belgilab berdi.

XORAZM VILOYATINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH: ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI VA USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligi va kelgusi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda viloyatda mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali ko'plab sohalarda ijobiy natijalarga erishildi. Sanoat hajmi 2016-yildagi 2,8 trillion so'mdan 34,3 trillion so'mga yetdi, yalpi hududiy mahsulot 63 trillion so'mni tashkil etdi. O'tgan yili viloyatga 1 milliard dollardan ziyod investitsiya jalb qilindi.

Shu bilan birga, erishilgan ko'rsatkichlar hudud salohiyatiga to'liq mos emasligi ta'kidlandi. Ayniqsa, turizm sohasida noyob tarixiy va madaniy merosga ega bo'lgan hududda sayyohlarning o'tacha qolish muddati 1-2 kun bilan cheklanmoqda.

Viloyatda 1 millondan ziyod yoshlar yashaydi, har yili 35 ming nafar navqiron mehnat bozoriga kirib keladi. Ularning ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy kasb-hunar egallashi va bandligini ta'minlash hudud rahbariyatining doimiy e'tiborida bo'lishi zarurligi ko'rsatib o'tildi. Yosh avlodni Jaloliddin Manguberdi, Beruniy, Xorazmiy va Zamaxshariy kabi buyuk siymolarga munosib etib tarbiyalash bo'yicha yangi tizimli yondashuvlar ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Aholining 67 foizi qishloqlarda istiqomat qilishini inobatga olib, aynan qishloq joylarda qo'shimcha daromad manbalarini yaratish orqali ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish muhim ekanini qayd etildi.

Masalan, Gurlan, Tuproqqal'a, Yangibozor va Qo'shko'pir tumanlarida chorvachilikka ixtisoslashgan 135 ta mahallada naslli chorvani ko'paytirish, Urganch, Xonqa, Qo'shko'pir va Shovot tumanlarida mahallalarni qurilish materiallari, to'qimachilik, hunarmandchilik va mebelsozlik yo'nalishlariga ixtisoslashtirish, shuningdek, Urganch, Qo'shko'pir, Xonqa, Yangiariq va Shovot tumanlarida 6 ta sanoat va xizmatlar mikromarkazini tashkil etish orqali kamida 10 ming aholini kambag'allikdan chiqarish imkoniyati bor.

O'tgan yili viloyatga kelgan xorijiy va mahalliy turistlar soni 12,5 million nafargacha yetgan. Biroq xizmatlar ko'lami va sifati, yangi turistik marshrutlar tashkil etish, sayohat obyektlarini mazmunan boyitish ishlari yetarli emasligi qayd etildi.

Xiva shahri, Bog'ot va Xiva tumanlaridagi turizm mahallalarida servis obyektlari barpo etish, 59 ta mahalladagi 14 ta gavjum ko'cha bo'yicha master-reja ishlab chiqib, tadbirkorlarga taqdim etish vazifasi qo'yildi.

10,8 gektar maydonda joylashgan Sulaymon qal'a majmuasini yangi turistik obyekt sifatida kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish topshirildi. Shuningdek, Urganch shahri orqali o'tuvchi Shovot kanali bo'yida turizm va servis obyektlari hamda ko'ngilochar markazlar tashkil qilish bo'yicha master-reja ishlab chiqildi.

Yig'ilishda investitsiya va eksporti oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etildi. Hazorasp, Urganch, Shovot, Tuproqqal'a va Urganch shahri salohiyatidan samarali foydalanib, yirik sanoat loyihalarini amalga oshirish zarurligi ta'kidlandi.

Pitnak shahridagi avtomobil zavodi quvvatini oshirish, mahalliy lashtirish darajasini 62 foizga yetkazish orqali yaxlit mashinasozlik klasterini shakllantirish imkoniyati mavjudligi qayd etildi.

Shuningdek, Hazoraspda kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat, Shovotda mebelchilik va tekstil yo'nalishlarida yangi loyihalar amalga oshirilishi belgilandi.

Viloyat shahar va tumanlarini zamonaviy qiyofaga keltirish, yo'l va suv infratuzilmasini yaxshilashga 1 milliard 600 million dollar ajratilishi ma'lum qilindi.

Umuman, joriy yilda xorijiy investitsiya hajmini 2 milliard dollardan, eksporti 510 million dollardan oshirish vazifasi qo'yildi. Bu orqali yalpi hududiy mahsulotni 8,4 foiz, sanoatni 9 foiz, xizmatlarni 16,2 foiz, qishloq xo'jaligini 5,7 foizga oshirish ko'zda tutilgan.

O'tgan yili Xorazm viloyatida kambag'allik darajasi 11,9 foizdan 6,7 foizga tushgani respublikadagi eng yuqori natija bo'ldi. Biroq kambag'allik darajasi respublikadagi o'tacha darajadan yuqoriligicha qolayotgani qayd etildi. Shu bois yil yakuniga qadar ishsizlik va kambag'allik darajasini kamida 3 foizgacha qisqartirish asosiy vazifa sifatida belgilandi.

(Davomi 2-betda).



AYOLLAR VA BOLALAR HUQUQLARINING HIMOYASINI YANADA KUCHAYTIRISH BO'YICHA CHORA-TADBIRLAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini yanada kuchaytirish, ularga nisbatan tazyiq va zo'rvonlikning oldini olish yuzasidan takliflar hamda yangi tashabbuslar bilan tanishdi.

Mamlakatimizda erta nikoh, erta yoshdagi tug'uruq hamda ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik holatlarining oldini olish masalalariga oila institutini mustahkamlash jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim yo'nalishi sifatida doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda.

Ushbu masalalar eng yuqori darajada bir necha bor muhokama qilinib, huquqni muhofaza qilish organlari hamda boshqa mutasaddi idoralar oldiga aniq vazifalar qo'yilgan. Ularning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida idoralararo kengash tashkil etilgan va qisqa muddatlarda amaliy takliflarni ishlab chiqish topshirilgan edi.

Bugungi taqdimotda keng jamoatchilik, soha ekspertlarining takliflari hamda ilg'or xalqaro tajriba asosida muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan tayyorlangan tashabbuslar ko'rib chiqildi.

Jumladan, ijtimoiy tarmoqlarda aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan bir qator masalalar bo'yicha quyidagi takliflar bildirildi: – shahvoniy shilqimlik uchun belgilangan 5 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosini qat'iy lashtirish;

– pedofillar uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazoni belgilash; – Jinoyat kodeksining 118 va 119-moddalaridagi jinsiy jinoyatlarni voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etgan mahkumlarni manzil-koloniyalarga o'tkazmaslik;

– Jinoyat kodeksining 6 ta moddasidagi jinsiy jinoyatlar bo'yicha ishlarni tergov qilish vakolatini ichki ishlar organlaridan prokuraturaga o'tkazish;

– shahvoniy shilqimlik bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikka oid materiallarda jinoyat alomatlari mavjud emasligi bo'yicha prokuror qarorini olish shartligi;

– ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik jinoyatlari bilan maxsus tayyorgarlikdan o'tgan advokatlar, tergovchi va sudyalarning shug'ullanishi;

– zo'rvonlikdan jabrlangan va himoya orderi berilgan xotin-qizlar himoyasini kuchaytirish maqsadida ularning telefon qurilmalariga maxsus "SOS" ilovalarini o'rnatish, bunda chaqiruv tugmasi bosilganda 5 kilometr radiusdagi ichki ishlar xodimlari 10 daqiqada manzilga yetib kelishi va boshqalar. Shuningdek, yurtimizda nikohlarning 40 foizi 18-19 yoshdagilar o'rtasida tuzilishi, biroq xalqaro tashkilotlarning eng maqbul nikoh yoshi 21 yosh ekanini, bu yoshga yetgan shaxslar, odatda, moliyaviy mustaqillikka erishib, oila qurishga har tomonlama tayyor bo'lishi haqidagi tavsiyalari asosida quyidagi tashabbuslar bildirildi:

– nikohni 21 yoshga yetgan shaxslar o'rtasida tuzilishini rag'batlantirish maqsadida qo'shimcha moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

– davlat bo'jidan imtiyozlar berish yo'li bilan nikohlanuvchilar o'rtasida nikoh shartnomasi tuzilishini rag'batlantirish;

– nikoh yoshiga oid qonunchilikni buzganlik uchun jarimaning 15 foizini bunday holat haqida xabar bergan shaxslarga berish tartibini joriy etish orqali erta nikohlarni aniqlash samaradorligini oshirish;

– erta nikoh va 16 yoshgacha bo'lgan homiladorlik holatlari haqida ichki ishlar organlari va "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga xabar berish bo'yicha idoralararo zanjirni yo'lga qo'yish, bunda qayd etilgan holatlar haqida xabar bermaslik uchun ma'muriy javobgarlikni belgilash;

– homilador yoki 3 yoshgacha bo'lgan farzand tarbiyasi bilan band talaba qizlar uchun ta'limni davom ettirish imkonini berish orqali ularni ta'limdan tushib qolishining oldini olish va boshqalar taklif etildi.

Davlatimiz rahbari bildirilgan tashabbuslarni ma'qullab, tegishli farmonga imzo chekdi hamda sohadagi yangiliklarni keng jamoatchilik orasida targ'ib qilish yuzasidan mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F A R M O N I

8-MART – XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNI MUNOSABATI BILAN MUKOFOTLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ulkan ehtirom ko'rsatish, davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, shuningdek, o'zining samarali mehnati, boy bilim va tajribasi bilan yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar jarayonida faol qatnashib, Yangi O'zbekistonda barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga katta hissa qo'shayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida quyidagilar mukofotlansin:

«O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri» faxriy unvoni bilan

Bobomurodova Xosiyat – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Kariyeva Bernara Raximovna – O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasining xoreografiya kafedrasini professori Toshova Moyra Nabiyeva – Buxoro shahridagi “Shayxul Olam” mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Buxoro viloyati Toshpulatova Klara Bekpulatovna – Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining texnik bo'limi standartlash bo'yicha yetakchi muhandis-texnolog, Qashqadaryo viloyati Xalikova Mukaddas Shamaksudovna – O'zbek Milliy akademik drama teatri aktyori

“Do'stlik” ordeni bilan

Abdrasuliyeva Juzimgul Matekovna – Chimboy tumanidagi “Gujimli” mahalla fuqarolar yig'ini raisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi

Aliyeva Zafara Jumabayevna – O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining amaliy san'at ashyolari bo'yicha eksperti

Axmedjanova Nasiba Muratovna – O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining “O'ztemiro'lashta” mir” aksiyadorlik jamiyati elektr mashina sexi izolyatsiya ustasi

Axmedova Zarifa Nishonovna – Sharof Rashidov tumanidagi “Zomin asali” mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari, Jizzax viloyati

Bakiyeva Narziniso Mirzoyevna – Bekobod tumanidagi “Bojiyeva Nazira” fermer xo'jaligi boshlig'i, Toshkent viloyati

Berdiyeva Barno Saitnazarovna – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta'lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo'mitasi a'zosi

Bobanazarova Jamila Xolmurodovna – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasida doimiy asosda ishlovchi senator

Bryukhovskaya Nadejda Vasilyevna – “Uzbekistan Airways” aksiyadorlik jamiyatining texnolog bo'limi boshlig'i

Daminova Muxabbat Jabborovna – Sariosiyo tumanidagi “Orzu Daminzoda” fermer xo'jaligi boshlig'i, Surxondaryo viloyati

Ziganshina Dinara Ravilyevna – Markaziy Osiyo davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasining ilmiy-axborot markazi direktori

Ibragimova Oliy Xojamberdiyevna – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 1-Gidrometallurgiya zavodi kran mashinisti, Navoiy viloyati

Karimova Feruza Baxtiyorovna – H. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining petrologiya laboratoriyasi boshlig'i

Matviyenko Irina Aleksandrovna – “Nemolchi.uz” ijtimoiy loyihasi rahbari

(Davomi 2-betda).



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI BILAN TAQDIRLASH TO'G'RSIDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning ezgu orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash hamda o'zining iqtidori, muhim g'oya va tashabbuslari, ibratli amaliy ishlari va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o'rnak bo'lib kelayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'zgarishlar jarayonida faol ishtirok etib, yurtimiz ravnaqi yo'lida bor kuch-g'ayrati, zamonaviy bilim va malakasi, ma'naviy-intellektual salohiyatini namoyon etayotgan qizlarimizni munosib rag'batlantirish maqsadida:

1. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi huzuridagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti komissiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtidorli qizlarini a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari sohaslarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risidagi takliflari ilovadagi ro'yxatga muvofiq ma'qullansin.

(Davomi 2-betda).



Halol mehnat – xotirjam hayot va farovon jamiyat garovi

Joriy yilda “yashirin iqtisodiyot”ni qisqartirish bo'yicha tub burilish amalga oshiriladi. Jumladan,



barcha davlat xizmatlari va kommunal to'lovlar, yonilgi, alkogol va tamaki mahsulotlari, avtomobil va ko'chmas mulk savdolari naqdsiz to'lov shakliga o'tkaziladi;



soliq, bojxona, sanitariya-epidemiologiya nazorati, standart, karantin, qurilish nazorati inspeksiyasi, yong'in xavfsizligi kabi 17 turdagi tekshiruvlarda “bodi-kamera”dan foydalanish majburiy bo'ladi.



“Soya”dagi iqtisodiyotdan ixtiyoriy ravishda shaffoflikka chiqmoqchi bo'lgan tadbirkorlar buxgalteriya, statistika, soliq hisobotlarini yuritish bo'yicha bepul o'qitiladi.



Kelgusi besh yilda “yashirin iqtisodiyot” ulushi 2 karra qisqartiriladi;

savdo va servis sohaslarida naqd pulsiz to'lovlar ulushi 75 foizdan oshiriladi;

rasmiy sektorda band bo'lgan aholi soni hozirgi 8,5 milliondan 14 millionga yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

“YASHIL MAKON” – TABIAT BILAN UYGʻUN TARAQQIYOT

Bugungi global taraqqiyot sharoitida “yashil iqtisodiyot” tushunchasi nafaqat ekologik siyosat, balki barqaror iqtisodiy oʻsishning ham asosiy yoʻnalishiga aylanmoqda. Tabiiy resurslar cheklangan, ekologik muammolar tobora kuchayib borayotgan bir paytda iqtisodiy rivojlanishni atrof-muhitni muhofaza qilish bilan uygʻunlashtirish hayotiy zaruratdir.

Fikr

“Yashil” iqtisodiyot inson salomatligi, hayot sifati hamda kelajak avlodlar manfaatlarini taʼminlashga xizmat qiladi. Shu maʼnoda, ekologik barqarorlik va iqtisodiy oʻsish bir-birini toʻldiruvchi hamda mustahkamlovchi omillar, desak, toʻgʻri boʻladi.

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yunalishlar boʻyicha islohotlar dasturlari va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmoni mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim siyosiy-huquqiy hujjatdir. Unda yil dasturi doirasida belgilangan ustuvor yoʻnalishlar, shuningdek, “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish vazifalari aniq belgilab berilgan.

Asosiy maqsad barcha sohada islohotlarni yangi bosqichga koʻtarish, “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga asoslangan barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, mahallalarga Yangi Oʻzbekiston qiyofasini olib kirish va “Inson qadri uchun” gʻoyasini amalda roʻyobga chiqarishdan iborat.

Farmonga muvofiq, 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 240 mlrd. AQSH dollaridan oshirish, iqtisodiy oʻsish surʼatini 6,6 foizga yetkazish, xorijiy investitsiyalar hajmini 50,4 mlrd. dollarga olib chiqish rejalashtirilgan. Shu



koʻrsatkichlar “yashil” taraqqiyot modeli iqtisodiy oʻsish bilan ekologik barqarorlik uygʻunlashgan holda amalga oshirilayotganini anglatadi.

“Yashil” transport – sof havo kafolati, degani. Ekologik barqarorlikni taʼminlashda toza transport vositalarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maʼnoda, elektromobillar xaridi uchun 16 foizgacha imtiyozli kreditlar ajratish, quvvatlash stansiyalarini 4 mingga yetkazish, yonilgʻi dvigatelli avtomobillarning atmosfera ifloslanishidagi ulushini 7 foizga kamaytirish kabi choralar “yashil” transport tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimiz boʻylab 365 ming gektar yerda daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Ayniqsa, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 250 ming gektar maydonida, jumladan, Orolning qurigan tubida 115 ming gektarda koʻchat ekish belgilangan islohotlarimizga mos xayrli amallardan. Bundan tashqari, respublika boʻylab 14 ta botanika va dendrologiya bogʻi, 20 tadan soya-salqin sayr

bilan birga, 1 mln. yangi ish oʻrni yaratib, 263 ming oilani kambagʻallikdan chiqarish koʻzda tutilgan.

Eʼtiborlisi, joriy yilning oʻzidayoq yalpi ichki mahsulotini 167 mlrd. dollarga yetkazish moʻljallanmoqdaki, bu

koʻrsatkichlar “yashil” taraqqiyot modeli iqtisodiy oʻsish bilan ekologik barqarorlik uygʻunlashgan holda amalga oshirilayotganini anglatadi.

“Yashil” transport – sof havo kafolati, degani. Ekologik barqarorlikni taʼminlashda toza transport vositalarini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maʼnoda, elektromobillar xaridi uchun 16 foizgacha imtiyozli kreditlar ajratish, quvvatlash stansiyalarini 4 mingga yetkazish, yonilgʻi dvigatelli avtomobillarning atmosfera ifloslanishidagi ulushini 7 foizga kamaytirish kabi choralar “yashil” transport tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida mamlakatimiz boʻylab 365 ming gektar yerda daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Ayniqsa, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 250 ming gektar maydonida, jumladan, Orolning qurigan tubida 115 ming gektarda koʻchat ekish belgilangan islohotlarimizga mos xayrli amallardan. Bundan tashqari, respublika boʻylab 14 ta botanika va dendrologiya bogʻi, 20 tadan soya-salqin sayr

koʻchalari barpo etiladi. Bu tashabbuslar ekologik vaziyatni yaxshilash, aholi salomatligini muhofaza qilish va yashash muhitini koʻrkamlashtirish imkonini beradi.

Darvoqe, sanoatda ekologik masʼuliyat nihoyatda muhim. Shu bois endilikda Toshkent shahri va Toshkent viloyati atrofida 6 517 ta issiqxonaga filtrlar oʻrnatish yoki ularni boshqa hududlarga koʻchirishni ragʻbatlantirish boʻyicha yangi tizim joriy etiladi. Atmosferaga zararli chiqindilar chiqarayotgan yirik korxonalarga 7 yil muddatga 100 mln. dollarlik kredit liniyalari ajratiladi. Hududning havo ifloslanishidagi ulushini 70 foizga tushirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan.

Bugun mahallalarni obodonlashtirish, koʻkalamzorlashtirish, yashil bogʻlar, sayr koʻchalari va bolalar maydonchalarini barpo etish orqali “yashil” infratuzilma hayotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu maʼnoda, bu yil mahalla – “yashil” islohotlar markazida boʻladi. Ayni shu maqsadlarda Mahalla jamgʻarmasiga yiliga qoʻshimcha 300 mlrd. soʻm ajratilib, 100 ming yangi ish oʻrni yaratilishi ijtimoiy hamda ekologik farovonlikning uygʻun rivojini taʼminlaydi.

Farmon va unga ilova qilingan dasturlar iqtisodiy oʻsishni taʼminlash bilan birga, mamlakatimizning “yashil” rivojlanish modeliga oʻtishini yanada jadallashtiradi. Bu islohotlar bugungi avlod manfaatlariga qatorida, kelajak avlodlar taqdirini ham oʻylab qabul qilingan strategik qarorlar, desak, ayni haqiqat.

Xayrullo GʻAFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasida
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza
qilish masalalari qoʻmitasi raisi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

JOYLARDAGI OʻRGANISHLAR VA AMALIY NATIJALARNI TAHLILI



Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yigʻilishi boʻlib oʻtdi. Unda fraksiya aʼzolarining saylov okruglaridagi oʻrganish yakunlari koʻrib chiqildi.

Taʼkidlanganidek, 26 – 28-fevral kunlari deputatlar saylov okruglarida boʻlib, aholi bilan yuzma-yuz muloqotlar oʻtkazdi, joylardagi mavjud muammolarni oʻrgandi hamda islohotlarning amaliy natijalarini tahlil qildi. Xususan, fraksiya aʼzolari 41 mahalla fuqarolar yigʻinida boʻlib, “mahalla yettilligi” faoliyati bilan tanishdi. Shuningdek, mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni taʼminlash borasida amalga

oshirilayotgan ishlar holati ham oʻrganiildi.

– Uchrashuvlarda 3 393 nafar fuqaro, jumladan, 90 nafar tadbirkor bilan bevosita muloqot oʻtkazildi, – deydi fraksiya aʼzosi Oybek Rahimov. – Shuningdek, 47 ta ijtimoiy soha obyekti, 30 ta tadbirkorlik subyekti faoliyati bilan tanishildi. Saylovchilar bilan suhbatlarda Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha islohotlar

dasturlari va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish boʻyicha davlat dasturi toʻgʻrisida”gi Farmonida belgilangan ustuvor vazifalarning mazmun-mohiyati aholiga yetkazilib, islohotlarning joylardagi ijrosi atroflicha oʻrganildi.

Muhokama jarayonida ayrim hududlarda infratuzilma, ichimlik suvi taʼminoti, maishiy chiqindilarni oʻz vaqtida olib ketish, taʼlim va sogʻliqni saqlash muassasalari bilan bogʻliq jiddiy masalalar mavjudligi aytilib, ularni tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda hal etish choralari belgilab olindi.

Shuningdek, yigʻilishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti Oʻzbekiston Ekologik partiyasi guruhi aʼzolarining 2025-yildagi faoliyati hamda 2026-yilda amalga

oshiriladigan ustuvor vazifalari muhokama qilindi.

Yigʻilishda yoshlarning ekologik tashabbuslarini qoʻllab-quvvatlash, “yashil iqtisodiyot” gʻoyalari targʻib qilish, qonunlarni ishlab chiqishda ishtirokchini kuchaytirish, taʼlim muassasalarda ekologik targʻibot ishlarni tizimli yoʻlga qoʻyish hamda joylarda amaliy ekologik aksiyalar tashkil etish vazifalari belgilandi.

Yoshlar parlamenti guruhining 2026-yilga moʻljallangan ish rejasini davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqotida aytilgan vazifalaridan kelib chiqib yanada takomillashtirish, uni amaliy ishlar va aniq mexanizmlar bilan boyitish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Kun tartibidagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

Mahalliy boshqaruvda yangi tizim:

MUKAMMALLIK YOʻLI

Mamlakatimiz taraqqiyotida keyingi yillar barcha jabhada islohotlar davri boʻldi. 2017-yilda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasida maʼmuriy islohotlar Konsepsiyasida mahalliy davlat hokimiyatini tubdan yangilaydigan oʻzgarish – vakillik va ijro hokimiyatini ajratish, hokimlarning vakillik hokimiyatiga boshchilik qilishdan voz kechish masalasi ilgari surildi va yangi tahrirdagi Konstitutsiyada bu masala oʻz oʻrnini topdi.

Mulohaza

Avvalgi Konstitutsiyada vakillik va ijro hokimiyati organlarining vazifalari (vakolatlari) ajratilmay bitta moddada belgilangan boʻlsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 122-moddasida xalq deputatlari Kengashlarining vakolatlari, 123-moddada hokimlarning vakolatlari belgilab qoʻyildi. Misol uchun, 95-modd 11-bandida Senatning mutlaq vakolatlari qatorida “Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari oʻz faoliyatini amalga oshirishda koʻmaklashadi” degan normaning aks etirilishi Senat bilan mahalliy hokimiyat organlari munosabatini Konstitutsiyaviy darajaga koʻtardi.

2024-yil 18-oktabrda “Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilingani munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi Qonun qabul qilindi. Bu qonunning 1-moddasida xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning mustaqil organ ekani, vakillik organlari va hokimlar alohida muhrga ega boʻlishi, 2-moddasida esa hokimlarni lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishning aniq qoidalari hamda 6-moddasida Kengashlar va hokimlarning qabul qilgan hujjatlari kuchga kirishida yagona elektron tizimning oʻrni alohida koʻrsatib qoʻyildi.

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, yangi tahrirdagi qonunda viloyatlar va Toshkent shahar hokimiga alohida vakolatlar berilgan boʻlib, bunday vakolatlar tuman va shahar hokimlarida yoʻq. Shuningdek, qonundan “Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatining moliyaviy asoslari” degan 3-bob chiqarib tashlandi va undagi masalalar – “Mahalliy davlat organlarining viloyat, tuman, shahar byudjetdan tashqari jamgʻarmalari” nomli 81-moddada mustahkamlandi.

Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining yer munosabatlari tartibiga solishi (vakolatlari) jiddiy oʻzgartirildi. 10-moddaga asosan endilikda viloyat va Toshkent shahar hokimi faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yer uchastkalarni doimiy foydalanishga



berishi mumkin. Avvalgi qonunda b u n d a y huquqqa tuman va s h a h a r hokimi ham ega edi. Endilikda q o n u n d a b e l g i l a n g a n

tartibda viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari (hokimlar emas) yer uchastkalari yoki ularning bir qismini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qoʻyish haqida qaror qabul qilish mumkin.

Yangi tahrirdagi qonunda Kengash sessiyalarini chaqirish, unga tayyorgarlik koʻrish, oʻtkazish masalalari oqilona hal qilindi, bu ishlarda hokim ishtiroki cheklandi. Lekin uning sessiyada ishtirok etish, kun tartibiga masala kiritish, navbatdan tashqari sessiyanı chaqirish tashabbusi saqlab qoldi.

Xalq deputatlari Kengashlari faoliyatida nazoratni kuchaytirish muhim masala. Avval Kengashlar faoliyatida faqat doimiy komissiyalar tuzilishi nazarda tutilgan boʻlsa, endilikda muvaqqat komissiyalar ham tuzilishi qonunda koʻrsatib qoʻyildi.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari sezilarli kengaytirildi va aniqlashtirildi. Qonunning 24-moddasiga binoan ularning vakolatlari avval 12 ta bandedan iborat boʻlsa, yangi tahrirdagi qonunda 29 bandda belgilandi. Ular qatorida aholini ijtimoiy himoya qilish dasturlarini tasdiqlash; byudjetni joriy etishning ustidan nazoratni amalga oshirish; hududiy byudjetlarga oʻzgartirish kiritish haqida qaror qabul qilish; byudjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanishi hamda erishilgan natijalar toʻgʻrisidagi hisobotlarni eshitish kabi vakolatlarni sanab oʻtishimiz mumkin.

Qonunda hokimlar, ichki ishlar hududiy boʻlinmalari rahbarlari, sogʻliqni saqlash vazirligi hududiy boʻlinmalari rahbarlarining hisobot berishi va hududiy adliya organlari rahbarlarining axborot berishi belgilab qoʻyilgani bilan cheklanmay, alohida moddalarda hisobot, axborot berish tartiblarini, ularning oqibatlari ham aniq koʻrsatib qoʻyildi (251 – 254-moddalar).

Yangi tahrirdagi qonunning 256 – 258-moddalarida esa Mahalliy vakillik

organlari faoliyatiga kiritilgan yangi “Kengash soʻrovi”, “Kengash tekshiruvi”, “Kengash tekshiruvini oʻtkazish boʻyicha komissiya” kabi institutlarning vazifasi, vakolati, ishini tashkil qilish masalalari ham aniq qayd etildi.

Nafslamlarini aytganda, Kengash va hokimlar faoliyatida qonuniylarning kafolatlari kuchaytirildi. Barcha boʻgʻindagi Kengashlarning qonunchilik normalariga muvofiq kelmaydigan qarorlari belgilangan tartibda Senat tomonidan bekor qilinishi belgilandi. Bu Kengashlarining Senat bilan munosabati kuchaytirilganidan dalolat beradi.

Qonundagi yana bir yangilik – Prezidentning favqulodda holat joriy etish toʻgʻrisidagi farmonida bunday hududda favqulodda holatning amal qilish davrida mahalliy davlat hokimiyati organlari vakolatlari toʻliq yoki qisman toʻxtatib turishni nazarda tutuvchi norma kiritilganidir.

Mahalliy davlat hokimiyati faoliyatini takomillashtirish doimiy jarayonga aylangan voqea, deb bemaol aytishimiz mumkin. Qonun yangilanishi bilan bu jarayon tugamaydi. U muntazam takomilga muhtoj, bunga hayot, ijtimoiy munosabatlarning rivojlanib borishi doimo taʼsir qiladi.

2026-yil 19 – 31-yanvar kunlari hokimlar va Kengash raislari, kotibiyat rahbarlari uchun Senat tomonidan tashkil etilgan seminar mashgʻulotlari ham shu boʻshliqni toʻldirishda muhim qadam boʻldi.

2025-yil 26-dekabrda gi Murojaatnomada esa Prezidentimiz oltinchi yoʻnalish sifatida davlat boshqaruvi sohasidagi islohotlarni davom ettirishni koʻrsatgan ekan, viloyat hokimlari va Kengashlar raislarining lavozimlari bir-biridan ajratilgani, bu tizim 2026-yil 1-yanvardan tuman va shaharlarda ham yoʻlga qoʻyilishini (yoʻlga qoʻyildi) ayni paytda bu jiddiy siyosiy islohot – hokimlar va ijro idoralarining Kengashlarga munosabatini mutlaqo oʻzgartirishini talab qilishini alohida taʼkidladi.

Haqiqatan ham, bu murakkab va koʻp eʼtibor talab qiladigan ish. Buning uchun tajriba almashishni doimiy yoʻlga qoʻyish, qoʻlga kiritilgan yutuq va kamchiliklar haqida ommaviy axborot vositalarida muntazam maʼlumotlar berib borish hamda mahalliy boshqaruvning yangi modeli boʻyicha siyosiy-huquqiy fanlar doirasida grantlar belgilash, ilmiy tadqiqotlarni keng yoʻlga qoʻyish lozim.

Ozod HUSANOV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi professori,
yuridik fanlar doktori.

“YANGILANAYOTGAN JANUB GAVHARI”



“Kattakon Vatan ekan, yumushlari haddan koʻp...” Bu Gʻafur Gʻulom misrasi. Rostdan ham, shunday. Oʻzbekiston – katta Vatan. Yumushlari serob.

Shu bois Prezidentimiz Vatan deya yelib-yuguradi, bir zum tin olmaydi, goh mamlakat, goh dunyo kezadi, charchamaydi, tolmaydi... Prezidentimiz Surxondaryoga tashrifi – soʻzlarimizning bir amaliy isboti.

Aks sado

“Janub gavhari”ga bu safargi tashrif boshqacha boʻldi. Surxondaryoliklar davlatimiz rahbarini sogʻinʻch va intiqlik, hurmatu mehr bilan kutgandi. Bu har bir yurtdoshimiz koʻzlarida koʻrinib turdi. Yoshi ulugʻlar, yoshlar, dehqonlar, olimlar bilan uchrashuv va muloqotlarda samimiylilik, koʻngildan soʻz aytish, hayot azizligini anglatish ustuvorlik kasb etdi.

“Tomorqa maktabida”gi mulohazalar, Jarqoʻrgʻondagi fikrlar, harbiylaru chegara haqidagi soʻzlar, Boysunda gulxanlanib yonayotgan gaz toʻgrisidagi gaplar, katta anjumandagi rivojlanish borasidagi qancha-qancha taklif topshiriqlar... Tinchlikning suv bilan havodagi zarurligi... Prezidentimizning har bir soʻzi, suhbatlari hayotning oʻziday maʼnoli. Eshitib, oʻyga tolasiz, tinglab, yuragingizga kuch olasiz. Dunyoning magʻzini tushunasiz. Oʻtayoqdan vaqtning mohiyatini uqasiz. Yurtimizda qilinayotgan har bir ishning mohiyatini anglaysiz. Anglaganingiz sari shodligingiz, shukronalaringiz ortadi.

“Qishdan oʻtdik. Shunday vaqtlar boʻlgandi, qishda uch oylab, chiroqsiz oʻtirardik. Ular ortda qoldi”, deydi Prezidentimiz. Haqiqatan ham, bugun xonadonlarimiz, koʻchayu xiyobonlarimiz kunu tun yorugʻ, charogʻon. Shunga monand hayotimiz ham munavvar.

Bahor Surxondaryodan boshlanadi...

Tashrif kunlari bahor arafasi edi. Surxondaryoda abru naysonlar esadi. Bodomlar oppoq gullagan. Dehqonlar dalada. Har bir mahallada necha-necha joyda sumalaklar qaynayapti. Ularni koʻrib, yuraysiz. Borligʻingiz bahorlanadi. Yom-yashil maysalar, ariqda toʻlib oqayotgan suvlar, osmondan uchayotgan tunarlar, bobodehqonning Bobotogʻday hayʼatlanishi, haybatlanishi, hayratlanishi... Prezidentimiz taʼkidlaganidek, “Bahor Surxondaryodan boshlanadi...”

Jarqoʻrgʻon tumanida “Qorayontogʻ” degan joy bor. Bu yer 5-6 yil ilgari sahro edi. Qumlik. Bir tup daraxt yoʻq. Qum ustiga kim uy soladi. Shamoldi qumun evriladi. Qum tepalardagi qum aylanadi. Toʻrgʻay uchmas, turna qoʻnmas choʻl... Shunday edi. Bugun-chi? Koʻrasizu tilingizdan soʻz uchadi, nahotki, shu Qorayontogʻ! Tush koʻryapmanni yoʻ? Bu yerda barpo etilayotgan “Yangi Oʻzbekiston” massivi hudud qiyofasini butunlay oʻzgartirib yubordi. Koʻp qavatli uylar, zamonaviy taʼlim muassasalari, oynadek asfalt yoʻllar, boʻy choʻzayotgan nihollar, gullab turgan daraxtlar, shoʻx-shoʻx oʻynayotgan bolalar, ming rang gullar, gulchehralar, koʻzlari charaqlagan yoshlar, yuzida mamnunlik balqib turgan nuroniyar... Nafaqat hudud, balki koʻngil obodligi nishonasi.

Prezidentimiz bu oʻzgarishlarni koʻrib, qoʻ

sevindi. Massivdagi sumalak saylida ishtirok etib, aholi bilan birga shodiyona kayfiyatda boʻldi, bu yerda istiqomat qilayotgan insonlarning samimiy fikrlariga quloq tutdi.

Surxondaryo – Afgʻoniston bilan chegaradosh. Qayerda chegara boʻlsa, u yerda masʼuliyat boshqacha. Chegaralar daxlsizligi – tinchlik garovi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qoʻmondoni Shavkat Mirziyoyev Surxondaryo viloyatiga tashrifi chogʻida harbiy qismda ham boʻldi. Bu yerda yaratilgan sharoitlar, harbiy texnika va qurollashalarni, jumladan, zamonaviy havo hujumidan mudofaa komplekslarini koʻzdan kechirdi.

Darhaqiqat, bugun Qurolli Kuchlarimiz qudrati imkoniyatga ega. Harbiylarimiz koʻllarida jahoniy harbiy texnologiyalar, koʻnglida Vatan tuygʻusi. Ular hushyor, hamisha uygʻok, fikri teran, sinchkov va chaqqon, kuchli hamda zabardast. Bularni eshitib, qudratlanasiz. Zotan, yurtda osoyishtalik mustahkam boʻlsa, ertangi kunga ishonchingiz ortadi. Tinchlik kelajakni yaratadi. Halovatda, erkinlikda hayot gullaydi.

Har jabhaga ilm bilan yondashiladi

Surxondaryo kundan-kunga farovon. Ayni paytda qilinadigan ishlar... Eh-he, yuzlabu minglab. Belni besh joydan boylaydigan payt. Viloyatda 49 ming gektar tomorqa dehqonlar ixtiyorida. Undan foydalanish qanday? Termiz tumanida “Tomorqa maktabi” tashkil etilishi bejiz emas. Tomorqalardan zoʻr foyda koʻrilsa, bir yilda 4-5-marta hosil olinsa, bu yerda “Tomorqa maktabi”ga ne hojat edi?... Yer unumdor, suv serob, havo quyoshli, tuproqqa ketmon dastani qadab qoʻysangiz, koʻkarib ketadi. Ammo maqtana olmaymiz, daromad kam. Nega? Dehqonchilik ilmi yetishmayapti. Qayerga nimani ekish kerak? Qaysi ekin navi eng hosildor? Ularga suv qanday beriladi? Tarvuzdan limongacha, piyozdan karamgacha, banandan olmagacha... Ularning dunyoda eng xaridorig navlarini bilamizmi? Axir ekladigan urugʻ sifati, qadaladigan koʻchat navi, olinadigan hosil – barchasi chambarchas. Jahon bozorida ayni shu omillar ragʻobatbardoshlikni taʼminlaydi. Shu bois endi dehqonchilikka ham ilm bilan yondashiladi. Aks holda yigʻishtirgan

hosilimizni eksport qilolmay, “attang”da yuramiz. Bozorda sotilmay, bosh tebratib, javdirab turamiz.

Tomorqa degan xazinaga koʻp yillar panja orasidan qaraldi. Dehqon oʻz holiga tashlab qoʻyildi. U tomorqadagi mevasini, qovun-tarvuzini, kartoshka-pomidorini sotolmay qiynaldi. Masalan, ming-ming tonnalab piyoz koʻchaga



chiqarib tashlanganiga guvohimiz. Shunday yillar boʻldi, “telejka-telejka” karam chiqitga toʻkildi. Tomorqaga ekilgan oʻriklar hosili yerga, tuproqqa koʻmilib, nobud boʻladi. Tomorqa muammosi olib yillardan kelyapti. Bu isrofu nobudgarichlikka kim aybdor? Balki tomorqachi nima ekishini bilamayotgandir? Ehtimol hosilni sotib olish tizimida muammo bordir? Bular qanday hal etiladi?

Prezidentimiz “Tomorqa maktabi” Surxondaryo tajribasi boʻlishini, viloyatning boshqa tumanlarida ham ana shunday maktablarni ochish, hatto respublika viloyatlarida ikkitadan “Tomorqa maktabi” tashkil etilishini aytdi. Ayni paytda eslatildi, issiqxonadan hosil olish Surxondaryo sharoitida ancha manfaatli. Eʼtibor qiling, Toshkentda issiqxonadan 1 tonna hosil olish 12 million soʻmga tushadi. Surxondaryoda 1 tonna hosil olishiga 5 million soʻm ketadi. Surxon quyoshi – baraka manbai. “Tomorqa maktabi”, qaysidir maʼnoda, Surxondaryoning quyoshini oltinga, boylikka, mablagʻga aylantirish maktabidir.

Prezidentimiz Surxondaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan oʻtkazilgan yigʻilishda hudud taraqqiyoti, farovonlik, odamlarning roziligi, aholini ish bilan taʼminlash borasida qator taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Yigʻilishda taʼkidlandiki, konlarimizda millionlab tonna koʻmir boʻlgani holda, uning samaradorligi kam. Shuning



uchun koʻmirdan bugungi zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, sintetik yoqilgʻi olish zarur. Bu yangi mablagʻ, yangi ish oʻrinlari demak. Qolaversa, viloyatda oltin, kumush, qoʻrgʻoshin va boshqa konlar mavjud. Hali ularni qazib olish yetarli darajada emas. Shularni hisobga olib, mis klasteri ishga tushiriladi. Xorij tajribasi olib kelinadi. Termizda biznes forumi oʻtkaziladi. Ular yaxshi samara beradi. Olma pish, ogʻzimga tush, deb oʻtiradigan davr emas hozir. Surxondaryoda shunday noyob toshlar borki, ular xalq xoʻjaligi uchun xorijdan import qilinaypti. Oʻzimizdagi konlarni ishga tushirish lozim. Juda zarur!

Yoʻllar yaqin – dillar yaqin

Har kuni kechqurun yoki tong otmay osmorga boqsangiz, bulutlar qip-qizil. Nimadir lovvil

INTEGRATSIYA VA SAMARADORLIK SARI DADIL QADAM

O'zbekiston energetika sohasida ulkan qadamlar tashladi. Bir vaqtlar aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun kundalik muammoga aylangan elektr energiyasi taqchilligidan energiya mustaqilligi hamda uzluksiz ta'minotga erishilmoqda. Mazkur yo'ldagi izchil siyosat, albatta, diqqatga sazovor.

Energetika

Davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan yirik energetika loyihalarini amalga oshirishga bag'ishlangan yig'ilishda keltirilgan raqamlar bu ijobiy o'zgarishlarni yaqqol ko'rsatadi. Jumladan, mamlakatimizda umumiy generatsiya quvvatlari 25,8 ming megavattga yetkazilishi, shundan 8 ming MVT qayta tiklanuvchi energiya manbalari – quyosh, shamol va gidroenergetika hissasiga to'g'ri kelishi islohotlarning hayotiy hamda to'g'riligidan dalolat. Yil yakuniga qadar elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmini 90 mlrd. kilovatt-soatga yetkazish rejasida esa energetika sohasidagi ulkan salohiyatni namoyon etadi. Bu 2020-yilga nisbatan 40 foizlik o'sish, degani.

Yoqilg'i-energetika majmuidagi 133 ta loyihadan iborat ulkan investitsiya portfeli, ayniqsa, yil yakuniga qadar 6 770 megavatt yangi quvvatlarni ishga tushirish rejasida energiya xavfsizligini ta'minlashdagi jiddiy yondashuvlar natijasi, desak, mubolag'a emas. Mahalliyashtirish darajasini oshirish, transformator, kabel, shamol elektr stansiyalari minoralari hamda parraklarini mahalliy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sa'y-harakatlar esa nafaqat importga qaramlikni kamaytiradi, balki iqtisodiyotning tegishli tarmoqlari rivojiga ham xizmat qiladi.

Yutuqlar o'zimizniki, muammolar-chi?

Yuqorida tilga olingan ulkan yutuqlar ortida qator yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Yig'ilishda ochiq aytilganidek, ayrim loyihalarni kelishish va yer ajratish bilan bog'liq jarayonlardagi sustkashliklar, byurokratik to'siqlar borligi yangi quvvatlarni ishga tushirish sur'atini sekinlashtirgan. Mutasaddi idoralar, jumladan, Energetika vazirligi va mahalliy hokimliklar o'rtasidagi hamkorlik hamda muvofiqlashuvning yetarli emasligi bu kabi kechikishlarga sabab bo'layotgani achinarli hol.

Yer ajratish va toifasini o'zgartirish kabi oddiydek ko'ringan jarayonlardagi oqsoqliklar yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishiga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Eng dolzarb masalalardan biri, bu – elektr energiyasini ishlab chiqarish va uni yetkazib berish o'rtasidagi muvozanatdir. Agar qo'shimcha yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlari qurilmasa, generatsiya quvvatlarining iste'mol hajmidan oshib ketishi xavfi mavjud.

O'tgan yili elektr tarmoqlarini rivojlantirishga ajratilgan mablag'larni o'zlashtirish sur'atining yetarli emasligi bu boradagi tizimli muammolardan darak beradi. Ya'ni yangi elektr stansiyalari



qurilayotgani yaxshi, ammo ulardan ishlab chiqarilgan energiya ni iste'molchilarga yetkazib berish uchun mavjud eskirgan yoki zamon talablariga javob bermaydigan tarmoqlar tizimi modernizatsiya qilinmasa, barcha sa'y-harakatlar zoye ketishi mumkin.

Aytish kerakki, mamlakatimiz energetikasining hozirgi holati strategik muhim bosqichda turibdi. Bir tomondan, elektr energiya taqchilligini bartaraf etish va energiya mustaqilligiga erishish yo'lidagi katta yutuqlarga erishildi. Iqtisodiyotning o'sishi hamda aholi ehtiyojlarining oshishi ga mos ravishda generatsiya quvvatlari muntazam ko'paytirilmoqda. Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga e'tibor qaratilayotgani kelajak uchun muhim poydevor yaratmoqda.

Boshqa tomondan esa yuqorida sanab o'tilgan qator og'riqli muammolar tezkor va samarali yechimlarni talab etadi. Bu boradagi sustkashliklar mamlakatning energiya xavfsizligiga, investitsion jozibadorligiga, eng muhimi, xalqning ushbu tizimdan rozligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shuning uchun kelgusida mamlakatning energiya mustaqilligini hamda aholini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun nafaqat yangi quvvatlarni ishga tushirish, balki mavjud tarmoqlarni modernizatsiya qilish, loyihalarni amalga oshirish jarayonlarini yuqori darajada soddalashtirish va mas'ul idoralar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Shundagina O'zbekiston energetika sohasidagi yutuqlarini mustahkamlab, uzoq muddatli barqarorlik hamda farovonlikka erishadi.

Yangi quvvatlar va energetika xavfsizligi

Yana bir muhim masala, tizimning "umurtqa pog'onasi"ni mustahkamlash, uzatish tarmoqlarini rivojlantirish har qachongidan-da zarur. Ya'ni elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining o'sishi uni iste'molchilarga yetkazib berish

tarmoqlarining rivojlanishi bilan mos kelishi shart. Aks holda, yangi quvvatlarning samaradorligi pasayishi mumkin.

Shu bois yig'ilishda yuqori kuchlanishli magistral tarmoqlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Yaqin yillarda jami 602 kilometr uzunlikdagi "Tolimarjon – So'g'diyona", "Sirdaryo – Halqa" va "Qorako'l – Nurobod" liniyalarining qurilishi energiya oqimlarini optimallashtirish, tizimdagi bosimni kamaytirish hamda mintaqalardagi ta'minotni yaxshilash imkonini beradi. 2030-yilga qadar "Yangi Angren – Namangan" tarmog'i hamda "Namangan" nimstansiyasini qurish rejasini vodiy viloyatlarining energetika infratuzilmasini yanada mustahkamlaydi.

Bu hali barchasi emas. Poytaxtimizda 75

elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida "Surxon – Pul-i-Xumri" yuqori kuchlanishli tarmog'i va uning nimstansiyalari qurilishini jadallashtirish vazifasi qo'yildi. Bu loyiha xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirib, nafaqat O'zbekiston, balki butun mintaqadagi energiya barqarorligiga hissa qo'shadi.

Ishlab chiqarish hajmlarini oshirish bilan birga, energiya samaradorligiga erishish uzoq muddatli barqarorlik uchun muhim. Yig'ilishda bu borada hali ko'p ishlar qilinishi shartli alohida qayd etildi. Joriy yilda soha hamda tarmoqlarda 4 mlrd. 378 mln. kilovatt-soat elektr energiya va 2 mlrd. 840 mln. kub metr tabiiy gaz tejash uchun tizimli choralar ko'rish zarurliki ko'rsatib o'tildi. Bu raqamlar energetika tizimida katta salohiyat mavjudligini va uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish zarurligini anglatadi.

Qolaversa, yirik korxonalarda ishlab chiqarish hajmini o'zgartirmasdan energiya sarfini kamida 10 foizga kamaytirish majburiyati muammolarni bartaraf etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga undaydi. Tarmoqlar hamda ijtimoiy obyektlarda energiya samaradorligini oshirish uchun 200 mln. dollar resurs jalb etish choralari belgilandi. Bu mablag'lar zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish hamda energiya tejoychi loyihalarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Isitish tizimlari

modernizatsiya qilinadi

Isitish tizimlari modernizatsiyasi – energiya samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishi. Shu bois kelgusida hududlarda issiqlik va kogeneratsiya markazlarini qurish dasturi ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Bunday markazlar bir vaqtning o'zida ham elektr, ham issiqlik energiyasini ishlab chiqarib, yoqilg'ini maksimal darajada samarali ishlatish imkonini beradi.

Toshkent shahrining har bir tumanida bittadan kogeneratsiya markazini tashkil etish ishlari davom etiriladi. "Yunusbod tajribasi" asosida hududlarda 7 ta yangi markaz quriladi. Issiqlik stansiyalari kuz-qish mavsumida barqaror ishlashini ta'minlash maqsadida ular uchun suyuqitirilgan gazni saqlash infratuzilmasini barpo etish masalasi ham kun tartibidan o'rin olgan. Bu chora-tadbirlarning barchasi isitish tizimining uzluksiz faoliyatini kafolatlashga xizmat qiladi.

Umuman, tizimda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan strategik loyihalar, magistral va taqsimlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish, sohadagi muvofiqlashtirilgan yondashuv, mintaqaviy integratsiyani yanada chuqurlashtirish, zamonaviy isitish tizimlarini joriy etish ularning barchasi mamlakatimizning energetik xavfsizligini mustahkamlash, iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish, eng muhimi, aholini arzon hamda uzluksiz energiya bilan ta'minlashga qaratilgan strategik qadamlardir. Bu ulkan rejalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonning kelajakdagi barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Sadritdin TUROBJONOV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik.

E'TIBORDAN KUCH OLGAN TOLMAS QANOTLAR

Davlatimiz rahbari Ko'ksaroy qarorgohida yurtimiz o'g'il-qizlari bilan muloqot qilib, ular uchun yaratiladigan imkoniyatlar haqida so'zlar, barkamol avlodning yoshlik nafasi ufurib turgan ovozigacha quloq tutar ekan, yoshlar Yangi O'zbekistonimiz ertasini bunyod etuvchi qudrat ekanini bot-bot ta'kidladi. Bu navqiron avlod vakillarining tolmas qanotlariga yanada kuch bag'ishladi. Uchrashuvda qatnashgan yoshlar bu haqda **Dil so'zi** hayajon bilan to'lib-toshib so'zlaydi.

Navqiron avlod – strategik aktiv

Ziyovuddin NURIDDINOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti Axborot xizmati rahbari:

– Prezidentimiz bilan uchrashuv yoshlar uchun intiqib kutiladigan va har yili o'tkaziladigan muhim siyosiy jarayonga aylandi. Bugun 22 milliondan ortiq yoshlari bor Yangi O'zbekiston uchun – bu, davlatimiz rahbari ta'бири bilan aytganda, eng yuqori o'rinda turuvchi masala.

O'zbekiston – yoshlar mamlakati. Navqiron avlod – millatimiz, xalqimizning strategik aktivi. Shu bois oxirgi yillarda ular uchun juda katta imkoniyatlar yaratildi. Islohotlar natijasi o'laroq bugun yoshlarimizning turli sohalardagi natijalari dunyo ahlini lol qoldirmoqda.

Prezidentimiz uchrashuvda e'tibor qaratgan eng muhim masalalardan biri yoshlar bandligi bo'ldi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, har yili 600 mingdan ortiq yigit-qizlar mehnat bozoriga kirib kelaypti va ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 1 millionga yetishi kutilmoqda.



Shundan kelib chiqqan holda, oliygohlar rektorlari, sport muassasalari tarbiyachilari va "mahalla yetitiligi" mas'ullariga ko'plab topshiriqlar berildi.

Bundan juda quvondik. Chunki bizning yo'limiz, taqdirimiz Yurtboshimiz e'tiborida turibdi, davlat bizga zaruriy hamma sharoitlarni yaratib beryapti. Mamlakatimiz Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez suratlarda rivojlanayotgan davlat sifatida e'tirof etilgani ham buning yorqin dalili.

Shu asnoda biz ham yaratilayotgan imkoniyatlarga mos va xos, yanada astoydil harakat qilishni o'z oldimizga ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik. Axir barcha sa'y-harakatlar O'zbekiston kelajagi uchun, barchasi yoshlar uchun!

Tarixiy jarayonlar guvohi bo'ldik

Marjona JO'RAQULOVA,
"Qizlar akademiyasi" rahbari:

– Yurtimiz aholisining katta qismini navqiron avlod tashkil etar ekan, ularning qanday ta'lim olishi, qanday kasb egallashi va bandlik darajasi bevosita davlatning ertangi iqtisodiy qudratini belgilaydi.

Demografik ustunlik o'z-o'zidan natija bermaydi. Agar yoshlar zamonaviy bilim va ko'nikmaga ega bo'lmasa, mehnat bozorida o'z o'rnini topa olmasa, bu salohiyat to'liq ishg'a tushmaydi. Shu bois Prezidentimiz yoshlar siyosatini strategik darajaga ko'tardi. Chunki har bir o'g'il-qizning ta'limi, kasbi va mustaqil daromad manbaiga ega bo'lishi kelajak taraqqiyotining eng muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Prezidentimiz bilan uchrashuvni markaziy studiya orqali kuzatar ekanman, unda ilgari surilgan tashabbuslar, tahlillar va aniq misollardan mamlakatimizda yoshlar siyosati tizimli bosqichga ko'tarilganiga yana bir bor amin bo'ldim.

Yurtboshimiz ikki yil avval ingliz tilini o'rganishni rag'batlantirish maqsadida kompensatsiya tizimi joriy etilganida bugungidek faxrli natijalarni tasavvur qilish qiyin bo'lganini ta'kidladi. Buni qarag'ni, hozirgi kunda xorijiy til o'rganayotgan

yoshlar soni keskin oshgan. Bu dunyo bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qila oladigan, global maydonga chiqishga tayyor avlod shakllanayotganini anglatadi.

Undan tashqari, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha 200 million dollar mablag' ajratilishi – oddiy raqam emas. Bu – minglab startaplar, yangi ish o'rinlari va mustaqil daromad manbalari degani. O'zini o'zi band qilgan yoshlar uchun kredit miqdorining 100 mln. so'mdan 300 mln. so'mgacha oshirilishi esa kichik tashabbuslarni real biznesga aylantirish imkonini beradi.

Ushbu muloqot orqali shuni his qildimki, yaratilayotgan imkoniyatlar ko'lami kengaymoqda, lekin shu bilan birga, talab ham ortmoqda. Endi yoshlar faqat ishtirokchi emas, balki natija ko'rsatishi kerak bo'lgan subyektaga aylanmoqda. Strategik siyosat sharoit yaratadi, biroq uning samarasi – yoshlarning o'z faolligi va mas'uliyatiga bog'liq.



Baland ruh bilan olg'a boramiz

Nilufar ERGASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi:

– Ona Vatanni sevis – so'z bilan ta'rifi lab bo'lmaydigan his. Shu o'rinda Vatani ham faqat so'z emas, chin yurak bilan xizmat qiladiganlarni ardoqlaydi. Bu fidoyilik, mas'uliyat hamda chin muhabbat yo'lidir.

Prezidentimiz yoshlar bilan ochiq muloqotda aynan shu muhabbat va mas'uliyatni namoyon etdi. Uchrashuv oddiy tadbir emas, qalbarni uyg'otgan suhbat bo'ldi. Ayniqsa, Yurtboshimizning kitobxonlik va mutolaa madaniyati haqidagi jon kuydirishlari qalbmizni behad to'qlinlatirdi. Zero, ma'naviyat millatning tomiridagi qon, tafakkur esa uning yuragidir. Prezidentimiz nigohida xuddi ulug' ajdodlarimiz, Cho'lponu Behbudiydek qayg'urishni ilg'adim. Ijodkorman-da, ichimda "Sen yonmasang, men yonmasam, kim yonadi?" degan satrlar aylanaverdi. Baxtli kelajak bilan bzniki, uylan erishish yo'lidagi zahmatlar ham. Demak, mas'ul ham o'zimiz.

Endilikda "Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish" jamg'armasi orqali eng iste'dodli yozuvchilarga ijodiy buyurtma

berilib, bir yil davomida oyiga 20 mln. so'mdan haq to'lanishi bu adabiyotga, so'zga, tafakkurga berilgan yuksak bahodir.

Prezidentimiz uchrashuv davomida har bir rahbar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, ularning g'oya va startaplarini qo'llab-quvvatlash, ishi hamda daromadli qilish uchun yanada faol bo'lishi zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, birorta yigit-qiz e'tibordan chetda qolmasligini qayd etdi, chunki har bir yosh – kelajakning bir sahifasi, millatning ertangi umidi.

Biz buyuk allomalar yetishib chiqqan zaminda tug'ilganmiz, tomirlarimizda ulug'lar qoni oqaypti. Mana, genlar qayta uyg'onadigan davrga keldik. Endi yangi tarix yozishimiz kerak. Ishonamanki, biz yana dunyo sahniga chiqamiz, o'z so'zimiz va amalmiz bilan buyuklar yo'lini davom ettirib, baland ruh bilan olg'a boramiz.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi") yozib oldi.



SHOLIKOR FERMERLAR MALAKA OSHIRMOQDA

Toshkent viloyati hokimi tashabbusi bilan Toshkent davlat agrar universitetida sholikor fermerlar uchun 36 soatlik o'quv mashg'ulotlari boshlandi.

Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti hamkorligidagi mazkur o'quv dasturi qishloq xo'jaligida zamonaviy va samarali yondashuvlarni joriy etish, ayniqsa, sholichilik tarmog'ida yuqori hosildorlikka erishish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanishni maqsad qiladi.



Seminar



Mashg'ulotlarda sohaning yetuk mutaxassislari hamda tajribali olimlar tomonidan dolzarb mavzularda ma'ruzalar taqdim etilyapti. Jumladan, o'quv jarayonida suv tejoychi texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish, jahon tajribasi asosida sholi yetishtirishning ilg'or

usullari, zamonaviy agrotexnik tadbirlar, shuningdek, sholi ekinlarida uchraydigan zararkunanda va kasalliklarga qarshi samarali kurash choralari haqida batafsil ma'lumotlar berilmoqda. E'tiborsiz, tinglovchilar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalarga

ham ega bo'lib, ularni o'z xo'jaliklarida qo'llashlari mumkin.

O'quv-mashg'ulotlar yakunida ishtirokchilarga maxsus sertifikatlar topshirilishi rejalashtirilgan.

"Xalq so'zi".

Kutubxona, "book cafe" va kitob do'koni ochib, oyiga 10 ming donadan ortiq kitob sotuvini yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga 3 yilga 1 mlrd. so'mgacha 7 foizli ssuda berish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'kir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-142. 31 016 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabog. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begumratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir G'. Bahromov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.50 Topshirildi – 01.40 **1 2 3 4 5 6**